



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qurbanova Marg'uba

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY
OMMALASHTIRISH VOSITALARI 13-15

Polvanov Azim Kuchkarovich

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING
MANBALARDА YORITILISHI 16-21

Esnazarova Zulfiya Baltashovna

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI
(1873 – 1924) 22-27

Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN
(1991 – 2017-yillar) 28-36

Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR
XODIMLARNING ISHTIROKI 37-43

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI 44-47

Asadova Ra'no Baymanovna

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) 48-52

Esanova Nilufar

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) 53-56

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

O'ZBEK XONLIKLERİ VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR 57-64

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA 65-70

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI 71-74

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 75-80

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI 81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN	160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyorova Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING
PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI
TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

THE MISJUDGEMENTS (HALLUCINATIONS) OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: CONCEPTUAL FOUNDATIONS, UNDERLYING CAUSES AND REGULATORY IMPERATIVES

Jabbarova Yulduz Ibrahim kizi,

PhD student

at the Law Enforcement Academy

of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article examines the phenomenon of hallucinations in artificial intelligence systems within legal practice, the generation of incorrect or non-existent data and conclusions by analyzing their conceptual nature, underlying causes, and associated risks, real-world court cases involving the misuse of generative AI tools such as ChatGPT by legal professionals and the urgency of enhancing regulatory frameworks, ethical and normative accountability to mitigate such errors.

Keywords: artificial intelligence, "hallucination", "confabulation", legal risks, AI-generated evidence, documents or legal advice, unreliable sources, non-existent information.

SUN'iy INTELLEKTNING NOTO'g'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR): MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi,

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy faoliyatdagI noto'g'ri va mavjud bo'limgan ma'lumotlarni, xulosalarni taqdim qilish holatlari (gallyutsinatsiyalar), ularning mohiyati va yuzaga kelish sabablari, ChatGPT kabi generativ sun'iy intellekt vositalarining huquqiy professionallar tomonidan noto'g'ri ishlatalishi oqibatida yuzaga kelgan real sud holatlari misolida ushbu hodisaning xavfli jihatlari va bu kabi xatoliklarni kamaytirish uchun normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, axloqiy va me'yoriy mas'uliyatning zarurligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, "gallyutsinatsiya", "konfabulyatsiya", huquqiy xavflar, sun'iy intellekt asosida hosil bo'lgan dalillar, hujjatlar yoki huquqiy maslahatlar, ishonchhsiz, mavjud bo'limgan ma'lumotlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N69>

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyoti sun'iy intellekt texnologiyalarining faol joriy etilishi natijasida tubdan o'zgarib bormoqda. Biroq, ushbu texnologiyalar huquqiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, huquqni qo'llash amaliyotida yangi imkoniyatlarni yaratish bilan bir qatorda, kutilmagan xavf-xatarlarni, murakkab huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt vositasida ishlab chiqilgan hujjatlar yoki huquqiy maslahatlar noto'g'ri ma'lumotlar asosida shakllanganda, bu nafaqat huquqiy noaniqliklarga olib kelishi, balki huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning ish yurituviga ishonchsiz dalillarning kirib kelishiga, xato qarorlar qabul qilinishiga, eng asosiysi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga, shuningdek davlat organlariga nisbatan ishonchsizlik ruhining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, mazkur maqolada sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy faoliyatdagi noto‘g’ri va mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni, xulosalarni taqdim qilish holatlari (gallyutsinatsiyalar), ularning mohiyati va yuzaga kelish sabablari, ChatGPT kabi generativ sun’iy intellekt vositalarining huquqiy professionallar tomonidan noto‘g’ri ishlatalishi oqibatida yuzaga kelgan real sud holatlari misolida ushbu hodisaning xavfli jihatlari va bu kabi xatoliklarni kamaytirish uchun normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va bu borada, axloqiy va me’yoriy mas’uliyat zarurligini yoritishga qaratilgan.

Sun’iy intellektda “*gallyutsinatsiya*” yoki “*sun’iy intellekt gallyutsinatsiyasi*” (*ba’zan to‘qib chiqarish, xotirada noto‘g’ri bog’lanish (konfabulyatsiya)* yoki *xomxayol (delusion)*) degan ma’nolarni anglatadi.[1]

Sun’iy intellektdagi “*gallyutsinatsiyalar*” atamasi sun’iy intellektning jadal sur’atda rivojlanayotgan davrida kengroq e’tirof etila boshlandi. Bu, ayniqsa, katta til modellari (LLM) asosida keng qo’llaniladigan chatbotlarning (ChatGPT, Google Bard va Bing Chat) ommaviy joriy etilishi bilan bog‘liq edi. Open AI 2022-yilning noyabr oyida “beta” versiyasida ba’zi foydalanuvchilar ushbu chatbotlar ko‘pincha mantiqan to‘g’ri tuyuladigan, ammo aslida yolg‘on bo‘lgan tasodifiy ma’lumotlarni o‘z javoblariga noo‘rin tarzda keraksiz qo‘shib yuborishini tanqid qilishgan. [2] Ko‘pgina axborot agentliklari, shu jumladan, Amerikaning “The New York Times” jurnali ham ushbu modellarning vaqtı-vaqtı bilan noto‘g’ri yoki nomuvofiq javoblarini tasvirlash uchun “*gallyutsinatsiyalar*” atamasini ishlata boshladilar.[3] Jurnalist Benj Edvards “Ars Technica” nashrida “*gallyutsinatsiya*” atamasi baxsli ekanini, biroq hali ham uning qandaydir metaforik ifoda shakli zarur deb hisoblab, bu jarayonni “ijodiy bo‘shliqni to‘ldirish”, ya’ni “*konfabulyatsiya*” (ya’ni, to‘qima xotira) atamasidan foydalanishni taklif etadi.[4] Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan olim Devid Beyker “*sun’iy intellekt gallyutsinatsiyasi*” atamasini ishlatmay, uning o‘rniga “*tasavvurga asoslangan oqsil yaratish*” iborasini qo’llashni ilgari surgan. [5] Ba’zi tadqiqotchilar esa ushbu atamaning qo’llanilishida izchillik yo‘qligini ta’kidladilar, lekin adabiyotlarda konfabulyatsiyalar, uydirmalar, faktik xatolar va boshqalar kabi bir nechta muqobil atamalarni ham aniqladilar.[6] Shuningdek, 2023 yilda Kembrij lug‘ati sun’iy intellekt sohasiga xos bo‘lgan ushbu yangi ma’noni kiritish uchun “*gallyutsinatsiya*” ta’rifini yangiladi. [7]

Olimlarning fikricha, sun’iy intellekt asosidagi tabiiy til modellarining ma’lumotlarga nisbatan gallyutsinatsiya qilishi ikki xil omil bilan izohlanadi. Birinchisi, “*manba ma’lumotlaridan kelib chiqqan gallyutsinatsiya*”- tajriba asosida (evristik) ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida yuzaga kelgan nomukammallik, ya’ni til modellarining manba ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelmasligi va tabiiy til generatsiyasi vazifalarining o‘ziga xos tabiatini va bu vazifalarda tafovutlarning(divergensiya) paydo bo‘lishi natijasida vujudga kelishi hisoblanadi. Bunda model manba ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelmagan tarzda o‘rgatilganda, u holda model tomonidan berilgan manbagaga sodiq bo‘lmagan va haqiqatga

asoslanmagan matnlar ishlab chiqilishi ehtimoli ortadi. *Ikkinchisi, “til modellaridan kelib chiqqan gallyutsinatsiya”*, xususan, generativ modellar, GPT-3 kabi ehtimollikni maksimal darajada oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonidan o‘tgan nomukammal modellar faoliyatining qochib bo‘lmaydigan natijasi sifatida ham ifodalanadi. Bunday xatoliklarning oldini olish uchun faol o‘rganish (active learning) va foydalanuvchi fikr-mulohazalariga asoslangan nozik sozlash (reinforcement learning from human feedback) talab etiladi. Generativ oldindan o‘rgatilgan transformatorlar (GPT) tizimi keyingi so‘zni bashorat qilishga yo‘naltirilgan. Natijada, GPT modellariga ma’lumotlar yetishmayotgan sharoitda ham keyingi so‘zni “taxmin qilish” uchun rag‘bat beriladi. Bu esa, o‘z navbatida, noto‘g‘ri yoki asossiz matnlarning yaratilishiga olib kelishi mumkin. Til modellari oldindan o‘rganish bosqichidan o‘tganidan so‘ng, gallyutsinatsiyalarni maxsus anti-gallyutsinatsiya usullari yordamida, xususan, inson fikr-mulohazalaridan olingan mustahkamlovchi o‘rganish orqali kamaytirish mumkin. [8]

Yaqinda San-Diegoda Kaliforniya universiteti olimlari keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘tkazib, sun’iy intellekt odamlarni aldashni o‘rganib olganini ma’lum qildi. GPT4.5 Tyuring testida 73 % ishtirokchini o‘zining haqiqiy inson ekaniga ishontirdi. [9] Unda to‘rtta sun’iy intellekt tizimi (LLaMa-3.1-405B, GPT-4, GPT-4.5, Eliza) va 284 kishi ishtirok etdi. Tajriba doirasida ularga besh daqiqalik muloqotdan keyin ikki suhbatdoshdan qaysi biri bot ekanini aniqlash taklif qilindi. Natija kutilgandan ham yuqori chiqdi: GPT-4.5 73 % holatda muvaffaqiyatga erishib, 73 % ishtirokchini o‘zining tirik ekaniga ishontirdi. *Mutaxassislarining fikricha*, GPT-4.5 neyrotarmog‘ining muvaffaqiyatiga eng katta ta’sir ko‘rsatgan omil-bu personallashtirish hodisasi bo‘lib, sun’iy intellekt o‘zini internet madaniyati va jargonidan xabardor “yosh introvert” sifatida namoyon qilganida, foydalanuvchilar unga ko‘proq ishonishgan. Ta’kidlanishicha, bunday natijalar ma’lum ijtimoiy xavflarni keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt allaqachon yozishmalarda odamlarni almashtira oladi — bu mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridan tortib, ijtimoiy tarmoqlargacha keng qamrovli sohalarga taalluqli. Hozirgi qadar birorta tizim uch tomonlama klassik testdan barqaror o‘ta olmagan-unda neyrotarmoq inson bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bahslashadi. GPT-4.5 buni uddalagan birinchi sun’iy intellekt bo‘ldi. Ammo olimlarning fikricha, bu sun’iy intellekt “aqli” bo‘lib qolganini anglatmaydi. Tyuring testi intellektni emas, balki odamni taqlid qilish imkoniyatini tekshiradi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, ilmiy va madaniy tashkiloti (UNESCO)[10] tomonidan 2024 yil sentyabr oyida o‘tkazilgan so‘rov natijalari tashvishlanarli tendensiyani ko‘rsatdi: sud tizimi vakillarining (jumladan, sudyalar, prokurorlar va advokatlar) 44 % o‘z ish faoliyatida ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanmoqda. [11] Biroq, ulardan 9 % shu davlat organlari tomonidan tashkil etilgan rasmiy o‘quv mashg‘ulotlari yoki ko‘rsatmalariga ega. Ayniqsa, 96 mamlakatning sud tizimi vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan ushbu tadqiqot muhim bo‘shliqni yoritib beradi va jiddiy axloqiy hamda huquqiy xavotirlarni keltirib chiqaradi. So‘rov natijalariga ko‘ra, sun’iy intellektning afzalliklariga qaramay, uning sud jarayonlarida qo‘llanilishi jiddiy huquqiy xavflarni ham keltirib chiqargan. So‘rov natijalari inson huquqlarining buzilishi ehtimolini, jumladan shaxsiy hayotga

daxlsizlik, so‘z erkinligi va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslikka doir axloqiy va huquqiy muammolarni aniqladi. E’tiborlisi, sud vakillarining 10 nafaridan 7 nafari huquqiy sohada sun’iy intellekt chat-botlaridan foydalanish xavflarini, xususan, xato, o‘ylab topilgan ma’lumotlar va biryoqlama yondashuv muammolarini tan olgan.

Bundan tashqari, AQSh Milliy Sud Kolleji (National Judicial College) tomonidan yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotda, sudyalar orasida so‘rov o‘tkazilganlarning 76 % generativ sun’iy intellektni sinab ko‘rmaganliklarini tan olgan, yana 7 % sudyalar esa uni sinab ko‘rgan bo‘lib, ko‘pincha “hallucinated” (haqiqatdan xoli) ishlar va keltirilgan qonuniy manbalar bilan bog‘liq salbiy tajriba orttirishganligini aytishdi.[12] AQSh Oliy sudi esa sud jarayonlarida sun’iy intellektdan foydalanish borasida ogohlantirgan. Bunga sun’iy intellekt tomonidan to‘qib chiqarilgan sun’iy intellekt “gallyutsinatsiyalari”, ya’ni *mavjud bo‘lmagan sud amaliyotlariga ishora qilishi yoki noto‘g‘ri huquqiy manbalarni keltirishi* sabab bo‘lgan. Jumladan, 2023-yil iyun oyida Kolorado shtatida yosh advokat Zaxariya Krabill[13] tomonidan generativ sun’iy intellekt vositasi – ChatGPTni noto‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq jiddiy kasbiy xatolik yuz berdi. Huquqshunoslik fakultetini tamomlaganiga ikki yil bo‘lgan Krabill fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorini bekor qilish uchun da’vo arizasini tayyorlashda ChatGPTdan foydalangan. U bu turdagи arizani ilk bor o‘zi mustaqil ravishda tayyorlayotgani sababli, huquqiy manbalarni o‘rganishda mazkur sun’iy intellekt vositasiga tayanadi. ChatGPT tomonidan taqdim etilgan o‘nlab sud qarorlarini Krabill tayyorlagan hujjalarga bevosita kiritadi. Biroq, sudning eshituv kuni Krabill mazkur qarorlarning barchasi soxta ekanini va ularning LexisNexis kabi ishonchli huquqiy bazalarda ham mavjud emasligini tushunadi. Bundan tashqari, u havolalarning soxta ekanini sudga ma’lum qilmay, arizasini ham qaytarib olmagan. Sudya bu holat yuzasidan Krabilldan sudga tushuntirish berishini so‘raganida, u aybni stajyorga yuklagan va bu esa, uning ikkinchi katta kasbiy xatosi bo‘ldi. Oxir-oqibat, sud arizani rad etib, Krabillni intizomiy choralar ko‘rish uchun advokatura tashkilotiga yubordi. 2023 yil iyun oyida Krabill ishlayotgan advokatlik firmasi uni ishdan bo‘shatib, Kolorado shtatinning professional odob-axloq kodeksiga muvofiq, malakali vakillikni ta’minlash, sudda vijdonan va qat’iyat bilan vakillik qilish, sud hujjalarni tekshirish, sudga nisbatan rostgo‘y bo‘lish kabi qoidalarni buzganlikda aybdor deb topilib, advokatlik faoliyatidan bir yil va bir kun muddatga chetlashtirildi.

Yuqorida Zaxariya Krabill ishi – bu yagona texnologiyalarning xatosi bo‘lmay, balki kasbiy mas’uliyat va axloqiy fazilatlarning inqirozi bilan bog‘liq holatdir. Aslida, huquqiy tizimda generativ sun’iy intellekt vositalarining imkoniyatlari keng bo‘lsada, ularni huquqiy faoliyatda qo‘llashda inson omili, professional ehtiyyotkorlik va mustaqil tahlil qilish salohiyati ustuvor bo‘lishi shart. Negaki, ChatGPT hech qachon advokatning axloqiy vazifalarini – hujjalarni tekshirish, sudga nisbatan rostgo‘y bo‘lish, mijoz manfaatini vijdonan himoya qilish kabi majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmaydi. Ba’zi odamlar qo‘rqadigan “robot advokatlar” yoki generativ til modellari asosida ishlab chiqilgan sun’iy intellekt platformalari texnologiyaning to‘xtovsiz rivojlanishi yo‘lida bo‘lsada, hech qanday qasamyod qilmaydilar va intizomiy ishlar bo‘yicha javobgarlikka tortilmaydilar. Biroq, haqiqiy advokatlar juda aniq qasamyod qiladilar va o‘z professional xatolariga

ko‘ra intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Shuning uchun, advokatlarning generativ sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanishi natijasida sodir bo‘ladigan xatoliklarni tushunishi va huquqiy sohada manfaatdor tomonlarning bu muammoni qanday hal qilishini tanlashlari juda muhimdir.

Ushbu ogohlantiruvchi voqeа tezda boshqa shunga o‘xhash ish holatlari bilan ham to‘ldirildi, chunki mamlakatning turli burchaklaridan — Texas, Jorjiya, Kolorado va Kaliforniyadagi boshqa advokatlarning ham o‘z ish faoliyatlarida sun’iy intellektni noto‘g‘ri ishlatganliklari haqida xabarlar kelib tushgan.[14] Bu shtatlarda faoliyat yuritadigan advokatlarning sun’iy intellekt modelidan noto‘g‘ri huquqiy foydalanishlari natijasida jinoyat ishi bo‘yicha xato tayyorlangan “habeas” hujjati, ijaraga beruvchining yuridik firmasi tomonidan ommaviy ravishda yaratilgan, haqiqiy va konkret dalillarga asoslanmagan, faqatgina shablonlar yoki ixtiro qilingan ma’lumotlar asosida ijarachi uchun noto‘g‘ri tarzda tuzilgan yuridik hujjatlar yoki xato shartlar kiritilgan arizalari, shuningdek, yuqori profilli oq yirik jinoyatchilik ishlari (white-collar crime) — “iqtisodiy jinoyatlar” bilan sudlangan ayblanuvchi o‘zining yuridik himoyachisi tomonidan yakuniy nutqini yozishda generativ sun’iy intellektdan foydalanilgani uchun jarimaga tortilgan. Sud, ayni ishlarning nafaqat mavjud emasligini, balki ularning sud jarayonlariga aloqasi ham yo‘qligini aniqladi. Bu holatni ko‘rib, sudya, shuningdek advokatlarning malakasizligi va noqonuniy faoliyatini qattiq tanqid qilib, sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish insonlar yoki jamiyat talabiga javob bermaydigan xato va soxta ma’lumotlarni taqdim etishi mumkinligi haqida o‘zining yakuniy xulosalarini bildirgan.

Ma’lumki, sun’iy intellekt, ayniqsa, mashinali o‘rganish asosidagi tizimlar, ayrim hollarda noma’lum manbalar yoki tasdiqlanmagan statistik modellarga asoslangan natijalarni taqdim etishi mumkin. Masalan, yuzni aniqlash tizimi shaxsni jinoyat sodir etgan deb tanib olish holatlari xorijiy amaliyotda qayd etilgan. Masalan, AQShning Kaliforniya shtatida 2020-yilda, yuzni aniqlash texnologiyasining noto‘g‘ri ishlashi natijasida uch shaxs politsiya tomonidan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinib, qamaldilar.[15] Xususan, 2020-yil yanvarda, Detroit politsiyasi Robert Uilyamsni 5 000 dollarlik soatlarni o‘g‘irlashda aybdor deb hisoblagan, bu AQShda yuzni aniqlash texnologiyasi orqali noto‘g‘ri hibsga olish holati edi. Sun’iy intellekt kuzatuv kamerasidan olingan noma’lum yuzni davlat ma’lumotlar bazasidagi jinoyatchilarning sur’atlari yoki haydovchilik guvohnomasi fotosuratlari bilan solishtiradi. Robert Uilyamsning eski haydovchilik guvohnomasi to‘qqizinch o‘rinda edi. Tizim uni eng yaxshi mos keladigan shaxs deb belgilab, Detroit detektiviga xabar yuborgan. Negaki, yuzni aniqlash texnologiyasi odatda millionlab suratlar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi, bu esa sun’iy intellektning yanada noaniq natijalar taqdim qilishiga, ishonchlilagini kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Uilyams, yuzni tanib olish texnologiyasiga asoslanib, noto‘g‘ri hibsga olingan birinchi odam sifatida tanilgan. Bundan tashqari, Detroit politsiyasi yana kamida ikki kishini yuzni tanib olish tizimi orqali noto‘g‘ri hibsga olgan, jumladan homiladorligi sakkiz oylik bo‘lgan bir ayolni, u avtomobilni o‘g‘irlashda ayblangan edi.

Kalifornyaning San-Fransisko shahridan bo‘lgan demokratik deputat Filip Ting, “AB 1814” qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlab, bu qonun politsiyaga yuzni aniqlash

texnologiyasini faqatgina asosiy dalil sifatida ishlatishni taqiqlab, balki ulardan qo'shimcha dalillarni topish va izlanishlar olib borishda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, uch qora tanli erkak, o'zlarining noto'g'ri hibsga olinganliklari sababli, Kaliforniya qonunlari taklif qilingan o'zgarishlarga qarshi chiqmoqda. *Ushbu qonun taklifiga ko'ra*, yuzni aniqlash texnologiyasini faqatgina izlanish yoki hibsga olishda birinchi asos sifatida qo'llamaslik, shuningdek boshqa mustahkamlovchi qo'shimcha dalillarni bilan ularni tasdiqlash yoki yuzlashtirish, yuzni aniqlash texnologiyasini shaffof usullarda va doimiy nazorat orqali qo'llash, barcha huquqiy va etik masalalarni inobatga olishlari shart. Detroitda yangi qonun 2024 yil iyul oyidan kuchga kirdi. Endi, politsiya yuzni tanib olish texnologiyasi yordamida aniqlangan shaxsning rasmi, agar uning jinoyat bilan bog'liqligini tasdiqlovchi boshqa dalillar bo'lmasa, guvohga tasdiqlash uchun ko'rsata olmaydi, bunga qo'shimcha ravishda, shaxsning joylashuv ma'lumotlari yoki DNK tahlillari kabi boshqa tasdiqlovchi dalillar ham bo'lishi kerak. Biroq, tanqidchilar, bu qonun hali ham xato qo'llanishlar va noto'g'ri hibsga olishi mumkinligini aytishmoqda, chunki bu texnologiya o'zining ishonchsizligi va irqiy kamsitishi (racial discrimination) bilan tanilgan. Uch qora tanli erkakning noto'g'ri qamoqqa olish bo'yicha da'volari hal-hanuz hal qilinmagan, lekin ularning ishi sun'iy intellekt texnologiyalarining inson huquqlarini buzishi va aybsiz odamlarni aybdor qilib, hibsga olishi bilan bog'liq jiddiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini nazarda tutadi.

Agar prokuror sun'iy intellektni ishlatib, mavjud dalillarga asoslanmagan holda ayblov xulosasini tuzsa, bu bir necha jiddiy xavflarga olib kelishi mumkin, ya'ni prokurorning ayblov xulosasini tuzishda barcha mavjud dalillarni e'tiborga olishni va uning asosida haqiqatga to'g'ri keladigan xulosalar chiqarishni talab qiladi. Sun'iy intellektning mavjud ma'lumotlar asosidagi xulosalari esa ba'zan haqiqatdan ham mavjud bo'lмаган, «*gallyutsinatsiya*» (*ixtiro qilingan*) *dalillar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin*. Bunda prokurorlar, masalan, shaxsiy guvohlarning yozuvlari yoki sud ekspertizasining natijalarini sun'iy intellektga kiritishda ehtiyyotkor bo'lishlari kerak, chunki sun'iy intellekt bu ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilishi yoki asossiz xulosalar chiqarishi mumkin. Shunday ekan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yoki tavsiya etilgan axborotdan foydalanishda prokuratura organlari uni dalil sifatida qabul qilishdan avval, ularning manbasi, aniqligi va qonuniy yo'l bilan olinganligini har tomonlama tekshirishi shart. Aks holda, sun'iy intellekt asosidagi dalil sudda rad etilishi va hatto, aybsizlik prezumpsiyasini buzish xavfi tug'ilishi mumkin.

Generativ sun'iy intellektdan advokatlarning noto'g'ri foydalanish holatlari bo'yicha sudyalarning munosabati

Amerika Oliy sudyasi Jon Roberts 2023-yilgi federal sudyalarning yil yakuni bo'yicha tayyorlagan hisobotida, o'zining asosiy muhokamasini sun'iy intellektning huquqiy soha va sud tizimidagi transformatsiya jarayoni, xususan, sun'iy intellektdan har qanday foydalanish ehtiyyotkorlik va mas'uliyatni talab qilishi zarurligiga qaratgan. Negaki, Bosh suda ta'kidlaganidek, bugungi kunda sun'iy intellekt platformalari va vositalari, masalan, ChatGPT ning tez sur'atlarda rivojlanishi huquqiy sohada sezilarli ta'sir ko'rsatib, generativ sun'iy intellekt advokatlarga ularning kamroq murakkab va takrorlanuvchi vazifalarini avtomatlashtirish orqali ko'proq murakkab va strategik

ishlar bilan shug‘ullanishga imkoniyat yaratadi va o‘z navbatida, ma’lum xavflarni ham vujudga keltiradi.[16] Shuningdek, sun’iy intellekt ilovalarining “gallyutsinatsiya” qilish holatlari, ya’ni xayoliy, mavjud bo‘lmagan ishlarni keltirib chiqarish holatlari va “maxfiy ma’lumotlarni sun’iy intellektga kiritish sudda maxfiylikni buzishi mumkinligi” haqidagi xavotirlarni yuzaga keltiradi. Bunda sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat advokatlarga, balki sud tizimiga ham ta’sir qilishini, chunki bu texnologiya “sudyalarning ishni qanday olib borishini, ularning sudlarda qanday ishlashini, shuningdek, ular oldiga kelgan ishlarni tushunish usulini o‘zgartirishi mumkinligini va eng asosiysi, sun’iy intellekt texnologiyalarining sudyalarning yoki advokatlarning qarorlarida qanday rol o‘ynashini tushunishiga ham ta’sir qilishini aytib, bosh suda o‘z fikrlarini yakunlagan.

Shuningdek, Texas shimoliy okrug sudyasi Brantley Starr advokatlar uchun yangi amaliyat qoidalarini yangilashni taklif qildi.[17] “*Generativ sun’iy intellekt to‘g‘risidagi majburiy sertifikatlash*” deb nomlangan yangi qoida, advokatlar va o‘z-o‘zini himoya qiluvchi da’vogarlarni quyidagi sertifikatni taqdim etishini nazarda tutadi:

Sun’iy intellekt aloqador bo‘lmagan ishlarda har qanday hujjatning hech qanday qismi generativ sun’iy intellekt (masalan, ChatGPT yoki Google Bard) tomonidan yozilmaganini tasdiqlaydigan hujjatni taqdim etishi lozimligini;

Sun’iy intellekt tomonidan tayyorlangan ishlarda sun’iy intellekt ishlatilgan bo‘lsa, unda generativ sun’iy intellekt tomonidan yozilgan har bir til, aniq tekshirish uchun inson tomonidan an’anaviy yuridik bazalar yoki chop etilgan manbalardan foydalanganligini tasdiqlaydigan hujjatni taqdim etishi lozimligini nazarda tutadi.

Sudya Starrning qoidasi, bu sertifikatlash zarurligini tushuntiradi, chunki hozirgi holatdagi generativ sun’iy intellekt platformalari “*gallyutsinatsiyalar*” va “*xatoliklar*” bilan yuzlashishi mumkin. Bu qoidada, advokatlar qonunlarga qat’iy rioya qilishi va individual fikrlarini bir chetga surish uchun qasamyod qilishgan bo‘lsada, generativ sun’iy intellekt inson tomonidan yaratilgan dasturlarning natijasi ekanligi va bu dasturlarning shunday qasamyodga ega bo‘lmaganligi aytildi. Bu qoidalar, huquqiy jamoatchilikda generativ sun’iy intellektga nisbatan tobora ortib borayotgan xavotirlarni ifodalaydi, chunki sun’iy intellektga haddan tashqari tayanish, ishlarning natijasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarga olib kelishi ehtimoli bor. Sudya Starrning buyrug‘ida, shuningdek, quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirish haqida ham bayon qilingan, ya’ni agar biror tomon platformaning huquqiy hujjat tayyorlash uchun zarur aniqlik va ishonchligiga ishonsa, u holda ushbu ishni ko‘rib chiqishga ruxsat so‘rashi va nega bunday platforma ishlatilishini tushuntirishi kerak. Shu sababli, agar biror tomon o‘z sertifikatini sud hujjatlarida ko‘rsatmasa va ular sudning maxsus talablarini o‘qiganini va imzolagan har qanday hujjat uchun javobgar bo‘lishlarini tushunganini tasdiqlamasa, sud hujjatlarni ish jarayonlariga qo‘sishni rad etadi. Sudya Starrning buyruqlarida sun’iy intellektdan foydalanganligini tasdiqlash uchun sertifikatlash talablarini aniq bayon qilishi va ularni topshirishi talab qilinadi.

Shuningdek, AQSh Xalqaro Savdo Sudi sudyasi Stefen Alexander Vaden “Sun’iy intellekt haqida buyruq” chiqardi.[18] Sudya Vadening buyruqlari, birinchi

navbatda, axborot maxfiyligini saqlashga bo‘lgan tashvishlari bilan boshlanadi. Sudya generativ sun’iy intellekt dasturlari egalari foydalanuvchilardan olingan ma’lumotlar saqlanmasligini ta’kidlasalar ham, ushbu tizimlar har bir foydalanuvchi bilan olib borilgan muloqotlardan o‘rganadi va muloqot tarkibidagi maxfiy axborotni mustaqil ravishda ajratib ko‘rsatish imkoniyatiga ega emasligini ta’kidlaydi. Sudya Vaden tomonidan belgilangan tartibga ko‘ra, ChatGPT yoki Google Bard kabi generativ sun’iy intellekt dasturlari orqali yaratilgan hujjatlar quyidagi talablarni o‘z ichiga olishi lozim:

birinchidan, matnda sun’iy intellektdan foydalanilganligi va uning qaysi qismlari sun’iy intellekt yordamida tayyorlangani haqida aniq ko‘rsatma berilishi;

ikkinchidan, generativ sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida maxfiy yoki tijorat ma’lumotlarining ruxsatsiz shaxslarga oshkor qilinmaganligini tasdiqlovchi maxsus sertifikat ilova qilinishi shart. Shu munosabat bilan, sudya Vaden sun’iy intellektdan foydalanishni to‘liq taqiqlamagan, balki maxfiylik bilan bog‘liq xavotirlarning holatlarga qarab ortishi yoki kamayishini inobatga olgan.

AQSh Pensilvaniya shtatining sharqiy tumanidagi federal sudyasi Maykl Beylson 2023-yil 6-iyun kuni generativ sun’iy intellekt haqida yana bir umumiy buyruq chiqardi. [19] Sudya Beylsonning buyruqlari, sudya Starr va sudya Vadenning buyruqlari kabi ochiqlikni talab qiladi, ya’ni har qanday advokat yoki o‘zini-o‘zi himoya qiluvchi da’vogar, agar ular generativ sun’iy intellektdan biron bir hujjatni tayyorlashda foydalangan bo‘lsa, buni aniq va oddiy bayon qilishlari, barcha huquqiy havolalar yoki dalillarni tekshirishi, ularning to‘g‘riligini tasdiqlashlari shart.

Illinoys shtatining Shimoliy okrugi magistrat sudyasi Gabriel Fuentes sudya Starrning yondashuvidan farqli o‘laroq, generativ sun’iy intellektdan foydalanishga nisbatan ehtiyyotkor va izchil yondashuvni taklif etadi.[20] O‘z buyrug‘ida Mata v. Avianca Inc. ishi va sudya Starrning qaroriga havola qilgan holda, generativ sun’iy intellektdan foydalanilgan hujjatlar uchun alohida tartibni belgilaydi. Xususan, agar biron bir taraf huquqiy tadqiqot yoki sudga taqdim etiladigan hujjatlarni tayyorlashda generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan bo‘lsa, ular bu holatni ochiq va oshkora tarzda bayon etishi, shuningdek, qo‘llanilgan aniq sun’iy intellekt vositasi va undan foydalanish shaklini hujjatda ko‘rsatishi shart. Sudya Fuentes o‘z yondashuvini sudya Vadenning maxfiylik tamoyillariga asoslangan pozitsiyadan farqli ravishda, sud oldidagi rostgo‘ylik va halollik tamoyillariga tayanib asoslagan. Bu esa, sud amaliyotida oshkorlik va ishonchlilik tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt texnologiyalarining, xususan, generativ til modellari asosida ishlab chiqilgan platformalarning tez sur’atlarda taraqqiy etishi huquqiy sohada sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, *bir tomonidan*, huquqni qo‘llash amaliyotida generativ sun’iy intellekt huquqiy professionallarga ko‘p vaqt talab qiladigan va takroriy ishlarni avtomatlashtirish orqali murakkab va strategik ishlar bilan shug‘ullanish imkonini yaratgan bo‘lsa, *boshqa tomonidan*, ma’lum bir xavf-xatarlarni, ya’ni ushbu sun’iy intellekt tizimlarining “gallyutsinatsiya” deb nomlanuvchi noto‘g‘ri, asossiz va uydirma xulosalarni yaratish qobiliyati huquqiy ishonchlilik va odillik tamoyillariga

bevosita tahdid solmoqda. Mazkur maqolada tahlil qilingan holatlar, xususan, BMT, AQSh Oliy sudi va okrug sudyalari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, sun’iy intellektning noto‘g‘ri xulosalari huquqiy professionallar, ya’ni sudlar, prokuratura organlari va advokatlarning ish jarayonlarining qonuniyligi, adolatli tashkil etilishi va eng muhimi, inson huquqlarini ta’minlash nuqtai nazaridan xavfli bo‘lishi mumkin. Huquqiy faoliyatda asosiy tamoyil hisoblangan aniqlik, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish va javobgarlik mezonlari sun’iy intellekt tizimlariga xos bo‘lgan statistik xatoliklar, ehtimollikka asoslangan yondashuvlar hamda faktik asosga ega bo‘lmagan ijodiy javoblar bilan nomuvofiqdir. Shu bois, *sun’iy intellektning gallyutsinatsiyalari bilan bog‘liq huquqiy xavflarni chuqur tahlil qilib, ularning oldini olish bo‘yicha axloqiy va huquqiy qoidalarni ishlab chiqish va javobgarlik chegaralarini belgilash zarurati sababli quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:*

Birinchidan, huquqiy mutaxassislar tomonidan sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayoni inson markaziy rol o‘ynaydigan, axloqiy-ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga asoslangan yondashuvni talab etadi. Sun’iy intellekt vositalari mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki faqatgina yordamchi funksiyani bajaruvchi texnologik yechim sifatida, insoniy nazorat ostida, kasbiy mas’uliyat va natijaviy hujjat ustidan to‘liq huquqiy javobgarlik doirasida qo‘llanilishi lozim. Bu esa, huquqiy tizimda texnologik innovatsiyalarni joriy etishda ehtiyyotkorlik, ehtimoliy xatoliklarni oldini olish va inson huquqlari ustuvorligini ta’minlashning zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, huquqiy professionallarning kasb etikasi qoidalariiga sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga doir maxsus standartlar, ya’ni axloqiy va texnik qoidalari kiritilishi zarur. Bunday qoidalari, bir tomonidan, sun’iy intellektdan mas’uliyatli, shaffof va inson huquqlariga zid bo‘lmagan tarzda foydalanishni ta’minalsa, boshqa tomonidan, huquqiy mutaxassislarning axloqiy javobgarligini mustahkamlovchi nazorat mexanizmini shakllantiradi. Ayniqsa,adolat, xolislik va professional mustaqillik kabi axloqiy tamoyillar sun’iy intellekt vositalarining imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgan holda huquqiy amaliyotda qat’iy rioxha etilishi lozim.

Uchinchidan, huquqni qo‘llash amaliyotida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida yaratilgan hujjatlarning ishonchliligi va huquqiy maqbulligini ta’minlash maqsadida “*insoniy verifikatsiya*”, ya’ni *inson tomonidan yakuniy tekshiruv va baholash mexanizmini (AI+Human Verification=Trusted Legal Output)* joriy etish zaruratga aylandi. Bunday verifikatsiya kasbiy mas’uliyatni kuchaytirib, sun’iy intellekt tomonidan yuzaga keltirilgan potensial xatoliklar, huquqiy noaniqliklar yoki gallyutsinatsiyalarni aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Har qanday sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan hujjat huquqiy professionallar tomonidan faktlar, huquqiy asoslar, axloqiy me’yorlar va fuqarolar manfaati nuqtai nazaridan mustaqil ravishda baholanishi lozim.

To‘rtinchidan, ma’lumotlar maxfiyligi, ularning muhofazasi, kiberxavfsizlik va shaxsga oid ma’lumotlar sun’iy intellektni yaratish, sinovdan o‘tkazish, joriy etish va undan foydalanishning barcha bosqichlarida qat’iy himoya qilinishi zarur. Bu borada, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish yurituvidanagi ma’lumotlarning

muhofazasini kuchaytirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalarining yagona mahalliy serverlarini, xavfsiz (shifrlangan) sun’iy intellekt vositalarini yaratish va tatbiq qilish lozim. Chunki, ko‘plab sun’iy intellekt modellarining ishlashi internetga ulanadigan tizimlar yoki tashqi serverlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida fuqarolar shaxsiy ma’lumotlarining ruxsatsiz ravishda tarqalishi va begona shaxslarning qo‘liga o‘tishi xavfini oshiradi. Shu boisdan, shaxsga oid ma’lumotlarni ochiq platformlardagi sun’iy intellekt xizmatlariga yuklamaslik, har bir sun’iy intellekt vositasi bilan ishlashdan oldin uning maxfiylik siyosati va ma’lumotlar xavfsizligi shartlari bilan tanishish lozim.

Beshinchidan, prokuratura organlari yoki advokatlar tomonidan sudga taqdim etish maqsadida tayyorlangan hujjatlar yoki boshqa ish hujjatlari (*masalan, tahliliy ma’lumotlar, xulosalar, protsessual qarorlar*) generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan bo‘lsa, ular bu holatni ochiq va oshkora tarzda bayon etishi, shuningdek, qo‘llanilgan aniq sun’iy intellekt vositasi va undan foydalanish shaklini alohida tartibda hujjat (maxsus sertifikat) ilova qilinishi lozim. Shu bilan birga, foydalanilgan sun’iy intellekt tizimining nomi, versiyasi, foydalanish maqsadi va ushbu texnologiyadan foydalanilgani haqida bevosita manfaatdor shaxs (mijoz, fuqaro) oldindan xabardor qilingani, bu holat esa yozma shaklda tasdiqlanishi ham ko‘rsatilishi zarur. Bu yondashuv sud jarayonlarida oshkorlik, ishonchlilik va protsessual adolat tamoyillarini ta’minalashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, sun’iy intellekt gallyutsinatsiyalarini *maxsus anti-gallyutsinatsiya usullari yordamida*, xususan, *inson fikr-mulohazalaridan olingan mustahkamlovchi o‘rganish orqali* kamaytirish mumkin. Xususan, model noto‘g‘ri yoki havolalar keltirilgan manbalarga asoslanmagan ma’lumot taqdim etganda, insonning huquqiy bilimlari orqali to‘g‘ri yo‘naltiriladi va shu tariqa modelning ishonchliligi va aniqligi oshiriladi. *Ko‘p manbali tasdiqlash (Cross-referencing) usuli orqali* sun’iy intellekt modellari bir yoki bir nechta manba orqali ma’lumotlarni tekshirishga o‘rgatilsa, uning gallyutsinatsiya qilish ehtimolliklarini kamaytiradi. Ya’ni, ma’lumotni bir necha turli manba bilan taqqoslab, aniqlik va ishonchlilik darajasi oshiriladi. *Yodlangan ma’lumotlar va faktlar bilan boyitish usuli orqali* modelga tasdiqlangan ma’lumotlar bazasini kiritish va uni o‘qitish orqali yodlangan, tekshirilgan faktlarga tayanish imkoniyati kuchaytiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, noto‘g‘ri yoki o‘ylab topilgan javoblarning oldini oladi. Shuningdek, model ijodiylik va yangilikka e’tibor qaratganda, noto‘g‘ri ma’lumot berish ehtimoli ortadi. Shu sababli, *yangilik va foydali ma’lumot o‘rtasida muvozanatni saqlash usuli orqali* modellarni tayyorlashda yangilik va foydali, ishonchlil ma’lumot o‘rtasida balansni saqlash zarur. Bu jarayonda faqatgina yangilikka emas, balki real va foydali mazmuniga ham alohida ahamiyat berish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/Hallucination_\(artificial_intelligence\)#:~:text=In%20the%20field%20of,experiences.%5B6%5D](https://en.wikipedia.org/wiki/Hallucination_(artificial_intelligence)#:~:text=In%20the%20field%20of,experiences.%5B6%5D);
2. Seife, Charles (13 December 2022). "The Alarming Deceptions at the Heart of an Astounding New Chatbot". *Slate*. Archived from the original on 26 March 2023. Retrieved 16 February 2023;

3. Weise, Karen; Metz, Cade (1 May 2023). "When A.I. Chatbots Hallucinate". *The New York Times*. ISSN 0362-4331. Archived from the original on 4 April 2024. Retrieved 8 May 2023;
4. Edwards, Benj (6 April 2023). "Why ChatGPT and Bing Chat are so good at making things up". *Ars Technica*. Archived from the original on 11 June 2023. Retrieved 11 June 2023;
5. Broad, William J. (23 December 2024). "How Hallucinatory A.I. Helps Science Dream Up Big Breakthroughs". *The New York Times*;
6. Jiang, Che. "AI Hallucinations: A Misnomer Worth Clarifying". Retrieved 2 April 2024;
7. Creamer, Ella (15 November 2023). "'Hallucinate' chosen as Cambridge dictionary's word of the year". The Guardian. Retrieved 7 June 2024;
8. Ji, Ziwei; Lee, Nayeon; Frieske, Rita; Yu, Tiezheng; Su, Dan; Xu, Yan; Ishii, Etsuko; Bang, Ye Jin; Madotto, Andrea; Fung, Pascale (31 December 2023). "Survey of Hallucination in Natural Language Generation". *ACM Computing Surveys*. 55 (12): 1–38. arXiv:2202.03629. doi:10.1145/3571730;
9. <https://arxiv.org/html/2503.23674v1>;
10. The United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO) // <https://ru.wikipedia.org>
11. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf00> .;
12. Ed Cohen, *Most Judges Haven't Tried ChatGPT, and They Aren't Impressed*, NAT'L JUD. COLL. (July 21, 2023), <https://www.judges.org/news-and-info/most-judges-havent-tried-chatgpt-andtheyarentimpressed/#>:
~:text=Of%20the%20332%20judges%20who,technology%20isn't%20reliable%20enough [<https://perma.cc/79Z8-LYR7>];
13. Quinn Ritzdorf, *Colorado Springs Attorney Says ChatGPT Created Fake Cases He Cited in Court Documents*, KRDO (June 13, 2023, 5:30 PM), <https://krdo.com/news/2023/06/13/coloradosprings-attorney-says-chatgpt-created-fake-cases-he-cited-in-court-documents/> [<https://perma.cc/8CNCQFN8>];
14. Robot lawers don't have disciplinary hearings-real lawers do: the ethical risks and responses in using generative artificial intelligence. Hon. John G. Browning.10_40_4_browning_final.pdf-Foxit Reader;
15. <https://calmatters.org/economy/technology/2024/06/face-recognition-technology-california/#:~:text=Tests%20by%20researchers%20have%20shown,in%20a%20data-base%20is%20outdated>;
16. E.g., Pranshu Verma & Will Oremus, These Lawyers Used ChatGPT to Save Time. They Got Fired and Fined., WASH. POST, <https://www.washingtonpost.com/technology/2023/11/16/chatgpt-lawyerfired-ai/> [<https://perma.cc/TCU3-QLAW>] (Nov. 16, 2023, 10:39 AM);
17. Judge Brantley Starr – Judge Specific Requirements: Mandatory Certification Regarding Generative Artificial Intelligence, U.S. DIST. CT. N. DIST. TEX., <https://www.txnd.uscourts.gov/judge/judge-brantley-starr> [<https://perma.cc/C5XR-89LP>];
18. Hon. Stephen Alexander Vaden, United States Court of International Trade, Order on Artificial Intelligence 1 (June 8, 2023) [hereinafter Court of International Trade AI Order], <https://www.cit.uscourts.gov/sites/cit/files/Order%20on%20Artificial%20Intelligence.pdf> [<https://perma.cc/DZ2N-JTJC>] ;
19. J. Michael M. Bayson, United States District Court for the Eastern District of Pennsylvania, Standing Order Re: Artificial Intelligence ("AI") in Cases Assigned to Judge Bayson (June 6, 2023), <https://www.paed.uscourts.gov/sites/paed/files/documents/procedures/Standing%20Order%20Re%20Artificial%20Intelligence%206.6.pdf> [<https://perma.cc/37VL-A97L>];

20. Mag. J. Gabriel A. Fuentes, United States District Court for the Northern District of Illinois, Standing Order for Civil Cases Before Magistrate Judge Fuentes, at 2 (May 31, 2023), [https://www.ilnd.uscourts.gov/assets/documents/forms/judges/Fuentes/Standing%20Order%20Fo20Civil%20Cases%20Before%20Judge%20Fuentes%20rev%27d%205-31-23%20\(002\).pdf](https://www.ilnd.uscourts.gov/assets/documents/forms/judges/Fuentes/Standing%20Order%20Fo20Civil%20Cases%20Before%20Judge%20Fuentes%20rev%27d%205-31-23%20(002).pdf) [<https://perma.cc/5PZ4-Z42P>].

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).